



MTTNING TURLI YOSH GURUHLARIDA BOLALARNI LOY ISHIGA O'RGATISH METODLARI

*Toshkent shahridagi TMC (Technology, Management, Communication)
institute Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 23-101-guruh talabasi*

Najmiddinova Muslimaxon Faxriddin qizi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida (MTT) bolalarni loy ishlari bilan tanishtirish, ularni bu faoliyatga qiziqtirish va ijodiy yondashuvni shakllantirish metodlari keng yoritilgan. Loy bilan ishlash jarayoni bolalarni nafaqat jismoniy, balki aqliy, hissiy va estetik rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Maqolada turli xil yosh guruhлари uchun alohida metodik yondashuvlar, tarbiyachi va bola o'rtasidagi o'zaro hamkorlik, shuningdek, zamonaviy pedagogic texnologiyalarni qo'llash ahamiyati haqida so'z boradi. Shuningdek, loy ishlari orqali bolalarda mayda motorikani, sabr-toqatni va tasavvur dunyosini rivojlantirishning samarali usullari tahlil etiladi.*

Tayanch so'zlar : *loy ishi, maktabgacha ta'lim, ijodkorlik, metodika, rivojlanish, bola psixologiyasi, tarbiyachi, STEAM-ta'lim*

Kirish

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni estetik va ijodiy jihatdan rivojlantirish bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biridir. Shu jarayonda loy ishlari muhim o'rin tutadi. Loy bolaga bevosita ta'sir qiluvchi tabiiy material bo'lib, u orqali bola atrofdagi dunyoni his qiladi, shakllarni, o'lchamlarni, tuzilmani o'rganadi. Loy bilan ishlash nafaqat o'yin, balki o'qitish, o'rganish va ijodiy fikrlashni uyg'unlashtiruvchi samarali metodik vositadir.

Maqolaning maqsadi – turli yosh guruhlaridagi bolalarda loy ishlari orqali ijobiy qobiliyatlarni rivojlantirish metodlarini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va samarali yechimlarni taklif etishdan iborat.

Maqolada quyidagi vazifalar ko'zda tutiladi:



1. MTTdagi kichik,o'rta va katta yosh guruhlarida loy ishlari metodlarini o'rgatish;
2. Loy ishlari jarayonida tarbiyachining roli va o'quvchi bilan muloqot usullarini aniqlash;
3. Zamonaviy yondashuv - STEAM va integratsion metodlarni tadbiq etish imkoniyatlarini tahlil qilish.

Asosiy qism

Kichik guruhda loy ishlari metodlari

Kichik guruhdagi bolalar (3-4 yosh) uchun loy bilan ishlash jarayoni asosan o'yin shaklida tashkil qilinadi. Bu yoshda bolalarning diqqatini uzoq vaqt bir joyga jamlash qiyin bo'lganligi sababli,mashg'ulotlar qisqa,lekin qiziqarli bo'lishi zarur. Tarbiyachi bolalarga oddiy shakllar yasashni – dumaloq,to'rtburchak,hayvoncha yoki meva shaklini yaratishni o'rgatadi.

Bu bosqichda muhim jihat – Bolani muvaffaqiyat hissini his qilishga o'rgatishdir. Har bir kichik natijani maqto'v bilan baholash,bolaning o'ziga ishonchini orttiradi. Shu orqali bola kelgusida murakkabroq ishlarni bajara olishiga ishonch hosil qiladi.

Masalan,"Qo'g'irchoq uchun tort yasaymiz" yoki "Qorboboni loydan yasaymiz" kabi syujetli o'yinlar bolalarni ijodiy harakatga undaydi.

O'rta guruhlarda loy ishlari metodlari

O'rta guruh (4-5 yosh) davrida bolalar allaqachon loy bilan ishlashning ba'zi asosiy ko'nikmalariga ega bo'ladi. Shu sababli,bu bosqichda metodik yondashuv ko'proq ko'rsatma va mustaqillikni uyg'unlashtirishga qaratiladi. Tarbiyachi namunaviy ko'rsatma beradi : "Mana shunday shakl yasaymiz",lekin bikaning mustaqil fikr bildirishini ham rag'batlantiradi.

Mashg'ulotlar mavzuli bo'lishi mumkin:"Bog'dagi mevalar","Uy hayvonlari","Transport vositalari". Bu mavzular orqali bolalar hayotiy tajriba bilan bog'langan shakllarni yasab,predmetlarning shakli,tuzilishi,rangini farqlashni o'rganadilar.



O'rta guruhda tarbiyachi bolalarni bir-birining ishini ko'rishga, baholashga o'rgatadi. Bu bolalarda nafaqat ijodiy, balki kommunikativ ko'nikmalarni ham rivojlantiradi.

Katta guruhda loy ishlari metodlari

Katta guruh (5-6 yosh) bosqichida bolalar murakkabroq shakllarni yasash, detallarni birlashtirish, mustaqil kompozitsiyalar tuzish qobiliyatiga ega bo'la boshlaydi. Shu sababli, tarbiyachi endi bolalarga ijodiy erkinlik berishi, ularni o'z fikrini ifoda etishga undashi zarur.

Masalan, "Men orzu qilgan bog'", "Hayvonot bog'im", "Yangi yil bayrami" kabi mavzular orqali bola o'z hayolini loyda aks ettiradi. Tarbiyachi bu jarayonda faqat yo'naltiruvchi rolini bajaradi.

Katta guruhdagi loy ishlari shuningdek maktabga tayyorlov bosqichi sifatida ham qaraladi. Chunki loy bilan ishlash tafakkur, diqqat, xotira va qo'l motorikasini rivojlantirib, yozuvga tayyorgarlikni yaxshilaydi. Bolalar guruh bo'lib ishlashni, materiallarni bo'lishishni, birgalikda yechim topishni o'rganadilar.

Muammo va yangiliklar

Bugungi kunda ko'plab MTTlarda loy ishlari uchun shart-sharoitlar yaratilgan bo'lsa-da, ayrim joylarda zarur materiallar – sifatli loy, plastmassa asboblari, qutilar yetarli emas. Shuningdek, ayrim tarbiyachilar zamonaviy metodik yondashuvlardan yetarlicha xabardor emaslar.

Shuning uchun sohada quyidagi yangiliklarni joriy etish muhim:

1. Loy ishlari mashg'ulotlariga STEAM-ta'lim elementlarini qo'shish (masalan, loydan yasash jarayonini tabiat, fan, san'at bilan bog'lash);
2. Raqamli texnologiyalarni yordamchi vosita sifatida qo'llash – loydan yasash jarayonini video orqali tahlil qilish;
3. Tarbiyachilar uchun seminar va amaliy treninglar o'tkazish;
4. Ota-onalarni ham jarayonga jalb qilish, oilada loy ishlari uchun sharoit yaratish

Bu yangiliklar loy ishlari orqali bolalarning nafaqat ijodiy, balki ilmiy va ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

**Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, loy bilan ishlash maktabgacha ta'limdagi eng samarali estetik metodlardan biridir. Loy bolaga "ko'rish-sezish-yaratish" zanjiri orqali dunyoni anglash imkonini beradi. Har bir yosh guruhida yondashuv farq qiladi, ammo ularning maqsasi – bolada ijodiy qobiliyatni ochishdir.

Tarbiyachining bu jarayondagi roli nihoyatda muhim: u bola uchun ilhom manbai, yo'naltiruvchi va hamkor sifatida ishtirok etadi. Shuningdek, zamonaviy ta'lim jarayonida innovatsion metodlarni tadbiq etish orqali loy ishlariyanada qiziqarli va samarali bo'lishi mumkin.

Loy ishi – bu oddiy o'yin emas, balki bola ruhiy olamini tarbiyalovchi, ijodiy tafakkurni o'stiruvchi jarayondir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim konsepsiyasi. – Toshkent, 2019.
2. Xoliqova N. "Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi". -Toshkent: O'qituvchi, 2020
3. Rasulova D. "Bolalar ijodkorligini rivojlantirish metodlari". – Samarqand, 2021.
4. www.edu.uz – Maktabgacha ta'lim vazirligi rasmiy sayti.
5. www.ziynet.uz – Pedagogik elektron resurslar portal.
6. G'ulomova M. "Ilk yoshdagi bolalarda estetik tarbiya asoslari". – Toshkent, 2022.